

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasi dotsenti
Z.O. Axrorov Taqrizi ostida**

Ruziyev Shaxzod

TDIU Samarqand filiali, ST-122 guruh talabasi

shaxzodruziyev87@gmail.com

Tel:+998915216189

Ilmiy raxbar: Moliya, soliq va bank ishi kafedrasi PhD, katta o‘qituvchi

Tuychiyev Sherxon Shuxrat o‘g‘li

LOGISTIKANING IQTISODIYOTDA TUTGAN O‘RNI VA TARKIBI

Anotatsiya: Ushbu maqola logistikaning mohiyati, uning kelib chiqishi va maqsadi, uning muhimligi bo‘yicha tadqiqotlarning tahlili va natijalari haqida bayon etilgan. Shiningdek, logistikaning tarkibiy qismlari, logistik tizimning bosqichlari va elementlarining batavsil tuchunchasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, logistika, yuklar, infratuzilma, eksport, moliyaviy-iqtisodiy inqiroz, iqtisodiy siyosat, yuk

Anotation: this article describes the essence of logistics, its origin and purpose, the analysis and results of research on its importance. Also, the components of logistics, the stages and elements of the logistic system are lit.

Keywords: economy, Logistics, Cargo, infrastructure, export, financial and economic crisis, economic policy, cargo

Kirish: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda samarali iqtisodiy siyosat natijasida barqaror o‘sish sur’atlariga erishilib, xalqimizning farovonligi va turmush darajasi yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda iqtisodiyotni modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va tarkibiy o‘zgartirish borasidagi keng ko‘lamli tadbirlar yangidan-yangi zamonaviy tarmoqlarning barpo etilishi, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning yangi turlarining yo‘lga qo‘yilishi, respublikamiz eksport salohiyatining kuchayishiga imkon yaratmoqda.

Bugungi kunda jahondagi ko‘plab mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga jiddiy tarzda salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz mamlakatimiz iqtisodiyotini ham o‘ziga xos, murakkab sinovdan o‘tkazmoqda. Bu borada mustaqillikka erishilgandan buyon yuritilayotgan oqilona va samarali iqtisodiy siyosat, ayniqsa, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning o‘ziga xos yo‘li va tamoyillarining belgilab olinishi, xususan, islohotlarning bosqichma-bosqich, tadrijiy yo‘l bilan olib borilishi, bunda davlatning bosh islohotchilik vazifasining qat’iy belgilab berilganligi inqirozlarning salbiy ta’sir oqibatlarini yumshatuvchi va bartaraf etuvchi omillarga aylanganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan bir qatorda, respublikamiz tomonidan eksport qilinuvchi mahsulotlarga jahon bozoridagi narxlarning pasayishi, talab hajmining qisqarishi, uzoq muddatli investitsiya loyihibalarini xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirish jarayonlarining kechikishi mumkinligi kabi holatlar inqirozga qarshi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirilishini taqozo etadi. Eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalar uchun taqdim etilayotgan imtiyozlar tizimini yana bir marta tanqidiy ko‘rib chiqish, bojxona tartib-taomillarini yanada soddallashtirish, ularni amalga oshirish muddatlarini qisqartirish va tashqi savdo operatsiyalarini bajarish uchun tariflarni pasaytirishga doir qo‘shimcha choralar ko‘rish lozim. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizda ish yuritayotgan tadbirkorlar faoliyatida zamonaviy logistika tizimlari, ya’ni iste’molchilarga logistik xizmatni ko‘rsatish strategiyalarini, iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liq hisobga olgan holda o‘ziga nisbatan ishonchni mustahkamlash, logistik bozor tizimida o‘z pozitsiyalarini kuchaytirish, ichki va xalqaro bozorlarda raqobatli kurash olib borish, aniqroq qilib aytganda milliy mentalitetimizni hisobga olgan holda tashqi bozorlarda logistik faoliyat asosida milliy tovar va xizmatlarni iste’molchilarga yetkazish mavzuning dolzarbligini asoslaydi.

Asosiy qism: Logistika tovarlar harakati bilan bog’liq har qanday biznesning muhim tarkibiy qismidir. U tovarlarni kelib chiqish joyidan iste’mol nuqtasigacha tashish, saqlash va taqsimlashni rejalashtirish,

muvofiqlashtirish va bajarishni o‘z ichiga oladi. Samarali logistika boshqaruvi korxonalarga xarajatlarni kamaytirishga, mijozlarga xizmat ko`rsatishni yaxshilashga va bozorda raqobatdosh ustunlikka erishishga yordam beradi.

Barchamizga logistika atamasi hozirda eng ko‘p qo‘llaniladigan kasblar qatorida sanab o‘tilishi ma’lum. Aslida, logistika nima degani? Bu soha qanday paydo bo‘lgan? “Logistika” yunoncha “logistike”- “hisoblash, muhokama san’ati” degan ma’nolarni anglatadi. Bu atama nazariy matematikaga qarama-qarshi qo‘yiladigan hisoblash va geometrik o‘lchovlar “san’ati” qadimiy matematikada logistika deb atalgan. Matematik olim Leybnits logistika va matematik mantiq terminlarini o‘zi ishlab chiqqan xulosa chiqarishdagi hisobning sinonimi sifatida qo‘llagan.¹ Biroq hozirda biz bilgan logistika bu ma’noda qo‘llanilmaydi. Logistikaning asl maqsadi kam xarajat qilib, ko‘p foyda olish va yetarli natijaga erishishdir. Logistika - bu puxta rejalashtirish, amalga oshirish va monitoringni talab qiladigan murakkab jarayon. Qisqacha qilib aytganda, to‘g’ri mahsulotni o‘z vaqtida va iloji boricha kam vaqt va kuch bilan yetkazib beruvchi kasb egasidir. Bu fikr biz bilgan dispetcherlar haqida ketmoqda.

Ko‘pchilik odamlar chetdan qarab, bularning ishlari juda oson, bir joyda o‘ttirishadi, ko‘p mehnat sarflamaydi, o‘zлari xohlagan vaqtida ovqatlanishadi, dam olishadi, ustiga-ustak yana baland maosh olishdi deb fikr bildiradi. Aslida bu sohada faoliyat yuritayotgan odamlarga bu fikrlar kulguli tuyuladi, chunki bu bildirilgan fikrlar noto‘g’ri. Aslida bu soha juda katta mashaqqat talab qiladi. Masalan, bu sohada ingлиз tili va boshqa tillarni haddan tashqari yaxshi bilish talab qilinadi, faoliyat olib borayotgan davlat hududini viloyatidan tortib, shaharlarini joylashish o‘rnini yoddan mukammal tarzda bilish, qolaversa bir joyda ko‘p o‘tiirish va o‘sha vat davomida kompyuter ekraniga qarab turish, agar boshqa davlatdan turib ish faoliyati olib borilayotgan bo‘lsa kechqurun uyqudan qolish va bir qator shunga o‘xhash narsalar talab qilinadi. Bu narsalarning barchasi sog liqqa juda zarar hisoblanadi. Maosh qancha katta bo‘lishidan qat’iy nazar pul inson sog‘lig‘idan ustun bo‘la olmaydi. Bu soha har qanday biznes muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar logistikaga juda katta e’tabor qaratishadi va bu sohani takomillashtirishga harakat qilishadi. Istalgan rivojlangan davlatlarga qarasak, ularda logistika yuqori darajada rivojlangan, xususan AQSH va Yevropa mamlakatlari. Logistika tovar va mahsulotlarni o‘z vaqtida va to‘g’ri holatda yetkazib berishni ta’minlaydi, bu esa mijozlarning qoniqishi va sodiqligini ta’minalash uchun juda muhimdir. Elektron tijoratning kuchayishi bilan logistika biznes muvaffaqiyatining yanada muhim omiliga aylandi, chunki onlayn mijozlar tezroq yetkazib berish muddatlari va uzlusiz logistika operatsiyalarini kutishadi. Shuning uchun bu soha to‘xtovsiz rivojlanib bormoqda.

Bu biznes turi bilan shug‘ullangan odamlar mo‘may daromad topishi hech kimga sir emas. Bunga misol qilib, 2022-yilning oktabr holatiga ko‘ra, Jeff Bezos 139 \$ milliardlik boyligi bilan Jeff Bezos dunyodagi uchinchi eng badavlat inson hisoblanadi.² U 1994-yilda hozirda jahonning eng yirik internet-kompaniyalaridan biri bo‘lmish amazonga asos solgan va logistika sohasiga o‘zining hissasini qo‘sghan va buning ortidan juda katta daromad ko‘rgan. Birgina qilgan loyihasi uni mashhur qilib yubordi desak mubolag a bo‘lmaydi. Boshqa sohalarda ham bir qator yangiliklar va innovatsion ishlar yuzaga chiqmoqda. Biroq ularni yaratganlarning har biri ham taniqli bo‘lmasa badavlatlar ro‘yxatidan joy olayotgani yo‘q. Qolaversa, Bezos Blue Origin nomli aerokosmik kompaniyaga, Mail.ru asoschisi Yuriy Milner bilan birga Antos Labs nomli biotexnolgik kompaniyaga asos solgani va “The Washington Post” gazetasi³ egasi ekanligi bilan hech kim eslamaydi. Bu esa, o‘z navbatida bu sohaning naqadar hayot uchun zarur ekanidan daolat beradi.

Qo‘ida logistikaning tarkibiy qismlarini ko‘rib chaqamiz (1 rasm).

¹ O‘zbekiston Milliy Ensklopediyasi. Birichi jild. Toshkent, 2000-yil.

² Bloomberg Billionaire Index – Jeff Bezos

³ «Meet Altos Labs, Silicon Valley’s latest wild bet on living forever» 2021-yil 4-sentabr.

LOGISTIKANING TARKIBIY QISMLARI**1 rasm. Logistikaning tarkibiy qismlari**

Quyida har birini batavsil o`rganamiz:

- Logistikaning muhim tarkibiy qismilaridan biri - bu inventarizatsiyadir. Yani, bu xarajatlarni minimallashtiris va mijozlar talabini qondirish uchun yetarli zaxira mavjudliliginini ta`minlash uchun inventarizatsiya darajasini boshqarishni o`z ichiga oladigan qismi. Inventarizatsiyani samarali boshqarish aniq prognozlash, o`z vaqtida buyurma berish va samaralarli saqlashdan iboratdir.
- Transport – bu logistikaning keyingi tarkibiy qismlaridan biridir. Bu tovarlarni bir joydan ikkinchi joyga ko`chirishni o`z ichiga oladi. Havo, dengiz, temir yo`l va avtomobil kabi bir nechta transport turlari mavjud. Tashish rejimini tanlash bir qancha omillarga, shu jumladan, bosib o`tgan va yetkazib berish jadvaliga bog`liq.
- Omborni ham logistikaning muhim tarkibiy qismi sifatida, muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta`kidlash kerak. Chunki bu tovarlarni xaridorlarga tarqatishdan oldin saqlash kerak bo`ladi. Omchorlar tovarlarning xavfsiz va samarali saqlanishini ta`minlashda katta rol o`ynaydi. Ular, shuningdek, korxonalarga yuklarni birlashtirishga imkon berib, transport xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.
- Axborot texnologiyalari - bu logistikaning tarkibiy qismi bo`lib, logistik munosabatlarni boshqarish va optimallashtirish uchun texnologiyalardan foydalanishni o`z ichiga oladi.
- Tarqatish logistikaning yakuniy qismi hisoblanadi. To`g`ri taqsimlash tovarlarni o`z vaqtida hamda qulay narxda yetkazib berishni ta`minlash uchun ehtiyojkorlik bilan rejalashtirish va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Bu eng samarali transport rejimini tanlash, yetkazib berish yo`nalishlarini optimallashtirish hamda mijozlarning kutishlarini oldini olishdan iborat qismdan iborat.

Logistik tizim, qo`idagi elementlardan iborat:

Logistik tizimning tuzilishida quyidagi omillar hisobga olinadi	<ul style="list-style-type: none"> - korxonalarning soni; - omchorlar soni; - transport modellari; - aloqa; - axborot tizimi.
Logistik tizimlar quyidagi belgilari ko`ra farqlanadi:	
Ko`lami bo`yicha: <ul style="list-style-type: none"> - mikroiqtisodiyot tizimlari (sanoat korxonasi doirasida); - makroiqtisodiy tizimlar (mamlakat, hudud yoki mamlakatlar guruhni ko`lamida); - mezologistik tizimlar – alohida turdagи mahsulotlar yoki mahsulotlar guruhlarining ta`minoti, ishlab chiqarish va sotish alohida 	Tayyorlash va qo`llash doirasi bo`yicha: <ul style="list-style-type: none"> - logistik tizimlar va jarayonlarni tahlil qilish, rejalashtirish, loyihalashtirish va konstruktiv rasmiylashtirish bo`yicha vazifalarni tayyorlash; - logistik jarayonlarni boshqarish, nazorat qilish va o`tkazish bo`yicha vazifalarni amalga oshirish; - logistik quvvatlar va tizimlar unumdarligining hisob-kitoblari bo`yicha vazifalar.

tizimlarning majmuasi.	
Xizmatning belgilanishi bo‘yicha: <ul style="list-style-type: none"> – transport logistikasi (tashish, ortish, tushirish, qayta ortish, omborga joylashtirish, taqsimlash); – ishlab chiqarish logistikasi; savdo sohasidagi logistika; xizmat ko‘rsatish sohasidagi logistika. 	Jarayonga bog‘liq moddiy oqimlarning izchilligi bo‘yicha: <ul style="list-style-type: none"> – ta‘minotda logistika; – ishlab chiqarishda logistika; – ombor logistikasi; – transport logistikasi; idishlarga joylashtirish jarayonidagi logistika; – mahsulotlarni sotish sohasidagi logistika; – ehtiyyot qismlar bilan ta‘minlash logistikasi; – ishlab chiqarish chiqindilarini yig‘ish va qayta ishslash sohasidagi logistika.

Logistik tizimlar **makro, mikro, mezo logistik tizimlarga** bo‘linadi va shu uch bosqich asosida eksport, import tavarlarni ishlab chiqish xamkorlar bilan aloqa tizimini yaxshilash imkonini yaratadi, logistik tamoillar muhim vazifani bajardi.

Birinchi bosqich “Makrologistik tizim” – mamlakatdagi savdo, transport, sanoat, vositaviy korxonalarni qamrab oluvchi materiallar oqimini boshqaruvchi yirik tizimdir. Makrologistik tizim biror bir mamlakatning aniq iqtisodiy infrastrukturasini o‘zida aks ettiradi. Makrologistik tizim quyidagi ko‘rsatkichlarga qarab tavsiflanadi: - mamlakatning ma’muriy-hududiy bo‘linish belgisiga ko‘ra - tuman, tumanlararo, shahar, viloyat va o‘lka; - mintaqaviy, mintaqalararo, respublika va respublikalararo; - funksional – obyekt belgisiga ko‘ra; - korxona, soha, korxonalar o‘rtasida, sohalararo, harbiy, institutsional va alaqalar tizimlarini mustaxkamlaydi.

Ikkinchi bosqich “Mikrologistik tizim” makrologistik tizimning tarkibiy qismlari, tizimchalari hisoblanadi. Unga har xil ishlab chiqarish, savdo korxonalari, hududiy ishlab chiqarish majmualari kiradi. Mikrologistik tizim ichki (ishlab chiqarish ichidagi), tashqi va integratsiyalashgan turlarga bo‘linadi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimlar mahsulot ishlab chiqarishning texnologik sikli doirasida materiallar oqimini boshqarishni optimallashtiradi. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizimning asosiy vazifasi – yakunlanmagan ishlab chiqarish va material resurslar zaxiralarni kamaytirish, firmanın kapital aylanishini tezlashtirish, uzoq muddatli ishlab chiqarish davrini kamaytirish, material resurslar zaxira darajasini nazorat qilish va boshqarish, texnologik (sanoat) transport ishini optimallashtirishdir. Ishlab chiqarish ichidagi logistik tizim ishini optimallashtirish mezoni mahsulot tannarxini va tayyor mahsulot sifatini berilgan darajada ta‘minlash, uzoq muddatli logistik tarmoq davrni saqlaydi va minimallash hisoblanadi.

Uchinchi bosqich “Mezologistik tizimlar”. Odatda davlatning xo‘jalik faoliyatini makroiqtisodiyot deb yuritiladi. Bu tushuncha mustahkam iqtisodiy aloqalar bilan bog‘langan mamlakatlarning xo‘jalik faoliyatini tavsiflash uchun ishlatiladi. Oxirgi yillarda iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda va butun jahon amaliyotida yagona logistik tizimga bog‘langan korxonalarning katta guruhlaridan konglomeratlar tuzish jarayoni kuzatilmogda. Konglomeratlar moliya – sanoat guruhlar korporatsiyasi hisoblanadi, bunda kapitallar birlashishi nazarda tutiladi. Ko‘rsatib o‘tilgan korporatsiyalar (bir mamlakatni qamrovchi) va transmilliy, ya’ni bir nechta mamlakatlar xo‘jalik faoliyatini birlashtiruvchi bo‘lishi mumkin. Har xil darajadagi shunday konglomeratlar tashkil bo‘lish jarayoni korporativlash nomini oldi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, moddiy resurslarni samarali boshqarish, ularni xarid qilish, saqlash va yetkazib berishda logistika muhim rol o‘ynaydi. Bu soha rivojlanishi uchun AQSH qo‘shma shtatlaridagidek yo‘l tirbanlikni olish uchun pullik yo‘llar joriy etilishi hamda bu soha bilan shugullanadigan korxonalarni ko‘paytirib ularga soliqda imtiyozlar berilsa logistikaga katta rivoj beradi hamda ko‘plab bo‘sh ish o‘rinnari yaratilib davlat

iqtisodiyotiga katta hissa qo'shami. Buning natijasida logistlar resurslarni optimallashtirish, xarajatlarni kamaytirish hamda mijozlarni talabini qondirishda juda katta yutuq va imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.M. Muxitdinov. Logistika asoslari. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti. -T.: Iqtisod-moliya, 2007. - 236 b
2. D. Umarova va boshq. Logistika. O'quv qo'llanma. - T.: Cho'lon nomidagi NMJU, 2016, — 252 bet.
3. F. Bazarov. Logistika asoslari. O'quv-qo'llanma: -T: «Tafakkur bo'stoni», 2017 y. – 192 b
4. M.M. Tairova, A.J. Abdulloev Logistika. O'quv qo'llanma – Buxara. Sadriddin Salim Buxoriy, 2020. - 128 6.
5. J.R.Qulmuxamedov, M.M.Aripjanov, K.M.Nazarov, F.R.Mirzayev,
6. Logistika asoslari. -T.: "Fan va texnologiyalari". 2015-yil. 107-b.
7. Sh.A. Butayev, Q.M.Sidiqnazarov, A.S.Murodov, A.U.Qo'ziyev «Logistika» (Yetkazib berish zanjirida oqimlami boshqarish). Monografiya. -T.: EXTREMUM-PRESS» nashriyoti, 2012, 580b.
8. Sh.A.Butayev, B.M.Mirzaahmedov, M.N.Jo'rayev, A.Sh.Do'rmanov, B.Bahodirov. «Tashish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish», -T.: O'zR Fanlar akademiyasi, «Fan» nashriyoti, 2009, 268 b.
9. <https://www.freightwaves.com/news/how-big-is-the-logistics-industry>
10. <https://www.aeb.com/intl-en/magazine/articles/world-bank-rankings.php>